AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI BOG‘LARI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Baxtiyorov Laziz Xolmurod o‘g‘li
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti – milliy tadqiqot universiteti
blazizbek.95@gmail.com

Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va harbiy yutuqlar, balki ulkan bunyodkorlik ishlari, xususan bog‘dorchilik va landshaft me’morchiligi rivoji bilan ham alohida ajralib turadi. Bu davrda barpo etilgan bog‘lar faqat estetik va dam olish maskani sifatida emas, balki davlat qudrati, siyosiy ramziyat va madaniy tafakkurning ifodasi sifatida shakllangan. Shu bois Temuriylar davri bog‘lari tarixini o‘rganish tarixshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Mazkur mavzuga oid tadqiqotlar hajmi nihoyatda keng. Jumladan, Amir Temur va Temuriylar davri bog‘lariga oid adabiyotlar soni dastlab yuzlab bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib minglab ilmiy ishlarni tashkil etadi[1]. Bu esa mavzuning nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Temuriylar davri bog‘lari tarixini ilmiy asosda o‘rganish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, Rossiya imperiyasi davrida boshlanadi. Bu davrda sharqshunoslik, arxeologiya va tarixiy geografiya fanlari shakllanib, Markaziy Osiyo hududlarini tizimli o‘rganish yo‘lga qo‘yildi. Mazkur yo‘nalishdagi ilk fundamental tadqiqotlardan biri V.L. Vyatkin nomi bilan bog‘liq. Uning Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasiga oid ishlari vaqf hujjatlari

[1] Амир Темур библиография. Биринчи китоб // Тузувчилар: Файзиев Х.Т., Бўриев О., Раҳматуллаев А.Р., Шарипов А.А., Бердиева З.Ш., Улжабоева С.Б., Авазов Ф.А., Масъул мухаррирлар Х.Т. Файзиев, О. Бўриев. – Тошкент: Фан, 2020. – 576 б.

asosida Temuriylar davridagi yer egaligi, sug‘orish tizimi va bog‘lar joylashuvini aniqlashga xizmat qildi. Vyatkin birinchilardan bo‘lib Samarqand atrofidagi bog‘larni tarixiy-geografik kontekstda o‘rganishga harakat qildi[2]. Shuningdek, akademik V.V. Bartold asarlarida Temuriylar davri keng qamrovda yoritilib, unda bog‘larning nomlanishi, joylashuvi va tarixiy ahamiyati haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning Hofizi Abru asaridan Samarqandga oid qismlarni tarjima qilib nashr ettirishi orqali Amir Temur davrida qurilgan bog‘lar haqida qimmatli tarixiy ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan[3].

Sovet davrida Temuriylar davri bog‘lari tarixini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda tarixiy tadqiqotlar arxeologiya, irrigatsiya tarixi va me’morchilik bilan uyg‘un holda olib borildi. G.A. Pugachenkova[4], B.V. Andrianov[5], B.A. Latinin[6], I. Mo‘minov[7] kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bog‘lar barpo etilishi jarayoni faqat tarixiy emas, balki moddiy madaniyat yodgorliklari orqali ham tahlil qilindi.

Arxeologik qazishmalar bu borada muhim ilmiy natijalar berdi. Jumladan, Davlatobod, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bo‘ldu kabi bog‘lar o‘rnida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ularning geometrik tuzilishi, chorbog‘ tamoyiliga asoslangan rejalashtirish tizimi va markaziy saroy-komplekslari aniqlangan. Bu esa Temuriylar davrida bog‘lar puxta me’moriy reja asosida

[2] Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята // Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск VII. – Самарканд: Товарищества, 1902. – 192 с.
[3] Бартольд В.В. Хафизи Абру и его историческое сочинение // Избранные сочинения. Т. IV. – Москва: Наука, 1966. – С. 144–173.
[4] Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов // Труды Среднеазиатского государственного университета. Новая серия. Вып.XXIII. Гуманитарные науки. Кн.4. –Ташкент, 1951 – с. 143-168
[5] Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – Москва: Наука, 1969. – 258 с.
[6] Латынин Б. Вопросы истории ирригации Древней Ферганы // Краткие сообщения о докладах и полевых
исследованиях Института истории материальной культуры. № 64. – Москва: Издательство Академии Наук
СССР, 1956. – с . 166
[7] Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиёда тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1968. – 52 б

barpo etilganini tasdiqlaydi[8,9]. Shu bilan birga, sovet davrida Amir Temur shaxsiga nisbatan ideologik yondashuv mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ayrim olimlar, xususan I. Mo‘minov, Temuriylar davrining bunyodkorlik jihatlarini yoritishda muhim rol o‘ynagan.

G‘arb mamlakatlarida Temuriylar davri bog‘lari tarixini o‘rganish asosan nazariy va konseptual yo‘nalishda rivojlandi. Bu borada M.E. Subtelny[10], L. Golombek[11], D.J. Roxburgh[12] kabi olimlar alohida ajralib turadi. M.E. Subtelny tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Temuriylar davri bog‘lari agrar tizim va landshaft arxitekturasi bilan bog‘liq holda o‘rganilib, chorbog‘ konsepsiyasining nazariy asoslari yoritib berilgan[13]. “Irshod az-ziroa” kabi agrar manbalar asosida olib borilgan tahlillar bog‘dorchilikni ilmiy asoslangan tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi. Liza Golombek va boshqa tadqiqotchilar esa Temuriylar davri bog‘larini san’at, miniatyura va madaniy ramziyat nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularning Boburiylar davrida davom etganini ko‘rsatib berdilar[14].

Eron tarixshunosligida Temuriylar davri bog‘lari ko‘pincha “Eron bog‘lari” umumiy konsepsiyasi doirasida o‘rganiladi. Bu yondashuvda Movarounnahr bog‘dorchiligi mustaqil fenomen sifatida emas, balki umumiy fors madaniy an’anasining bir qismi sifatida talqin qilinadi[15]. Biroq zamonaviy tadqiqotlar bu yondashuvni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki Temuriylar davri bog‘lari o‘ziga xos rejalashtirish, irrigatsiya va estetik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni alohida ilmiy fenomen sifatida o‘rganish

[8] Сухарев В.Д. Самарканд в эпоху Тимура и Тимуридов. – Москва: Издательство АН СССР, 1954. – С. 232.
[9] Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик хўжалиги тарихи. – Тошкент, 1984. – Б. 33–39.
[10] Subtelny M.E. A Medieval Persian Agricultural Manual in Context: The Irshād al-zirā‘a in Late Timurid and Early Safavid Khorasan // Studia Iranica. – 1993. – Vol. 22, No. 2. – P. 167–217.
[11] Golombek L. The Gardens of Timur:New Perspectives”, *Muqarnas* 12 (1995), p. 137-147.
[12] Roxburgh D.J. The Gardens of Herat: A History of the Timurid Landscape. – London: I. B. Tauris, 2005. – 272 p.
[13] Subtelny M.E. Agriculture and the Timurid Chahārbāgh: The Evidence from a Medieval Persian Agricultural Manual // Gardens in the Time of the Great Muslim Empires. – Leiden: Brill, 1997. – P. 110–128.
[14] Golombek L. The Gardens of Timur: New Perspectives… – P. 142
[15] Adelvand P. The aesthetics of garden’s concept in miniature and gardening of India (with emphasis on the Mughal era) // JOCO Quarterly. – 2014. – Vol. 2, No. 3. – P. 48–55.

muhimdir. Eron tarixchiligi yana bir jihati bilan ajralib turadi — qiyosiy tahlil. Ular Temuriylar davri bog‘larini Hindiston, Yevropa va Eron bog‘lari bilan taqqoslab o‘rganadi. Bu esa umumiylik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi[16].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Temuriylar davri tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Natijada mazkur mavzuga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar va monografiyalar yaratildi. Zamonaviy tadqiqotlarda irrigatsiya tizimi, qishloq xo‘jaligi va bog‘lar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik alohida o‘rganilmoqda. Suv resurslarining bog‘lar qurilishidagi hal qiluvchi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi[17]. Shuningdek, miniatyuralar, arxeologik topilmalar va yozma manbalarni kompleks o‘rganish orqali Temuriylar davri bog‘larining rekonstruksiyasi amalga oshirilmoqda. Bu esa tarixshunoslikda yangi metodologik yondashuvlarning shakllanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davri bog‘lari tarixshunosligi turli davrlar, ilmiy maktablar va metodologik yondashuvlar asosida shakllangan murakkab ilmiy tizimdir. Rossiya imperiyasi davrida boshlangan ilmiy izlanishlar sovet davrida arxeologik va kompleks tadqiqotlar bilan boyitildi, g‘arb tarixshunosligida esa nazariy va konseptual yondashuvlar rivojlandi.

Zamonaviy davrda esa ushbu mavzu milliy tarixshunoslikning muhim yo‘nalishiga aylanib, yangi metodlar asosida chuqurroq o‘rganilmoqda. Kelgusida Temuriylar davri bog‘larini Movarounnahr tarixining mustaqil fenomeni sifatida o‘rganish, ularni global bog‘dorchilik tarixidagi o‘rnini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

[16] Masoudi A. Baghha-ye Iran va Hend (The Gardens of Persia and India) // Journal of Architecture and Culture. – 2005. – Vol. 6, No. 21. – P. 141–146.
[17] Маҳмудова М. Амир Темур ва темурийлар салтанатида ирригация тизимининг ривожланиши. – Фарғона: ФарДУ, 2023. – 158 б.